



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-sentabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 22 183 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 19 877 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 91,7 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 90,8 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda savdo (118 taga), yashash va ovqatlanish (49 taga) oshganligini ko'rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 162 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	481	9,9 %	Zarafshon sh.	204	12,5 %
Karmana t.	431	13,4 %	Nurota t.	172	11,1 %
Qiziltepa t.	338	11,4 %	Konimex t.	172	17,1 %
Xatirchi t.	325	12,2 %	Tomdi t.	116	17,7 %
Navbahor t.	287	12,6 %	G'ozg'on sh.	71	17,7 %
Uchquduq t.	215	22,8 %			

2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: tashish va saqlashda 604 tadan 775 taga (o'sish 171 ta), savdoda 6 405 tadan 8 187 taga (o'sish 1 782 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 168 tadan 2 517 taga (o'sish 349 ta).

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 866	Nurota t.	1 543
Karmana t.	3 224	Konimex t.	1 005
Qiziltepa t.	2 970	Uchquduq t.	942
Xatirchi t.	2 654	Tomdi t.	657
Navbahor t.	2 283	G'ozg'on sh.	401
Zarafshon sh.	1 638		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-avgust oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 746 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 738 ta;
- yirik korxonalar 8 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	453	10,6 %	Uchquduq t.	212	25,7 %
Karmana t.	418	14,1 %	Nurota t.	168	12,4 %
Qiziltepa t.	332	12,1 %	Konimex t.	170	19,4 %
Xatirchi t.	322	13,6 %	Tomdi t.	113	19,7 %
Navbahor t.	285	13,5 %	G'ozg'on sh.	71	19,2 %
Zarafshon sh.	202	13,4 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- sentabr holatiga 19 971 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 153,8 foizni tashkil etdi (12 982 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,0 foiz, sanoat – 15,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,5 foiz, qurilish – 7,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 3,9 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 10,6 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 277	Nurota t.	1 359
Karmana t.	2 971	Konimex t.	877
Qiziltepa t.	2 735	Uchquduq t.	825
Xatirchi t.	2 366	Tomdi t.	575
Navbahor t.	2 107	G'ozg'on sh.	369
Zarafshon sh.	1 510		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda



Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar-avgust oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 863 tadan 981 taga (o'sish 118 taga), yashash va ovqatlanish - 160 tadan 210 taga (o'sish 50 taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish - 30 tadan 36 taga (o'sish 6 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	453	10,7 %	Uchquduq t.	210	25,6 %
Karmana t.	416	14,1 %	Nurota t.	168	12,4 %
Qiziltepa t.	332	12,2 %	Konimex t.	170	19,6 %
Xatirchi t.	322	13,6 %	Tomdi t.	112	19,5 %
Navbahor t.	285	13,6 %	G'ozg'on sh.	70	19,1 %
Zarafshon sh.	200	13,3 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (21,4 foiz), Karmana (14,9 foiz), Qiziltepa (13,7 foiz), Xatirchi (11,9 foiz) va Navbahor (10,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	4 247	Nurota t.	1 354
Karmana t.	2 956	Konimex t.	868
Qiziltepa t.	2 727	Uchquduq t.	821
Xatirchi t.	2 363	Tomdi t.	573
Navbahor t.	2 102	G'ozg'on sh.	367
Zarafshon sh.	1 499		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	221
Zarafshon sh.	52
G‘ozg‘on sh.	16
Konimex t.	328
Qiziltepa t.	281
Navbahor t.	328
Karmana t.	367
Nurota t.	364
Tomdi t.	192
Uchquduq t.	64
Xatirchi t.	304



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	642
Zarafshon sh.	309
G'ozg'on sh.	212
Konimex t.	90
Qiziltepa t.	330
Navbahor t.	258
Karmana t.	469
Nurota t.	253
Tomdi t.	91
Uchquduq t.	156
Xatirchi t.	357



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 90,8 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 90,6 foizini ishlab chiqarish sanoati (2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 95,3 foizni tashkil etdi), 7,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 126,9 foizni tashkil etdi), 2,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 159,0 foizni tashkil etdi) va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 130,0 foizni tashkil etdi) tashki etgan.



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	416
Zarafshon sh.	128
G'ozg'on sh.	12
Konimex t.	33
Qiziltepa t.	216
Navbahor t.	138
Karmana t.	230
Nurota t.	102
Tomdi t.	30
Uchquduq t.	32
Xatirchi t.	85



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 54,4 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 102,2 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,2 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 170,0 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,4 foiz ulushni tashkil etdi.

187



Fuqarolik
obyektlarini qurish

461

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

774


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 767
Zarafshon sh.	501
G'ozg'on sh.	68
Konimex t.	219
Qiziltepa t.	1 355
Navbahor t.	1 093
Karmana t.	1 196
Nurota t.	342
Tomdi t.	185
Uchquduq t.	347
Xatirchi t.	1 114



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 8 170 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,7 foiz ulushni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 18,5 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 109,6 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,8 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 107,8 foizni tashkil etdi.

720

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 512

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 955

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	275
Zarafshon sh.	200
G'ozg'on sh.	6
Konimex t.	43
Qiziltepa t.	167
Navbahor t.	71
Karmana t.	182
Nurota t.	57
Tomdi t.	23
Uchquduq t.	94
Xatirchi t.	160



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 114,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'ahlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 11,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 88,9 foiz ulushini tashkil etdi.

142

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 136


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	80
Zarafshon sh.	21
G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	7
Qiziltepa t.	30
Navbahor t.	15
Karmana t.	42
Nurota t.	10
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	10
Xatirchi t.	40



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 15,6 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish 120,6 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 36,3 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 48,1 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish 100,8 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	145
Zarafshon sh.	37
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	5
Qiziltepa t.	31
Navbahor t.	17
Karmana t.	45
Nurota t.	10
Tomdi t.	9
Uchquduq t.	13
Xatirchi t.	38



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 353 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,5 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish 121,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,7 foizni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 216,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,8 foizni tashkil etdi;

17

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

13




323

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	216
Zarafshon sh.	53
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	146
Navbahor t.	57
Karmana t.	183
Nurota t.	13
Tomdi t.	12
Uchquduq t.	15
Xatirchi t.	71



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 102,1 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 124,7 foizni;


pochta va kuryerlik yo'nalishi 103,7 foizni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	361	12,4 %	Nurota t.	129	17,2 %
Qiziltepa t.	311	15,0 %	Konimex t.	86	19,3 %
Karmana t.	285	16,5 %	Zarafshon sh.	79	13,5 %
Uchquduq t.	194	26,9 %	Tomdi t.	36	12,6 %
Navbahor t.	155	16,3 %	G'ozg'on sh.	7	8,0 %
Xatirchi t.	154	18,2 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 22 183 ta korxonalar va tashkilotlarining 11 394 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 36,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,5 foiz, sanoat – 14,1 foiz va qurilish – 9,7 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	2 921	Uchquduq t.	722
Qiziltepa t.	2 068	Zarafshon sh.	587
Karmana t.	1 728	Konimex t.	445
Navbahor t.	952	Tomdi t.	286
Xatirchi t.	846	G'ozg'on sh.	87
Nurota t.	752		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-avgust oyida tashish va saqlashda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan qurilish 12 taga, yashash va ovqatlanishda 5 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

Xatirchi t.	133	13,7 %	Navoiy sh.	38	5,6 %
Zarafshon sh.	110	14,2 %	Karmana t.	35	7,5 %
Navbahor t.	94	17,1 %	Nurota t.	12	3,7 %
Konimex t.	72	29,5 %	Uchquduq t.	9	14,5 %
Tomdi t.	75	31,8 %	Qiziltepa t.	8	2,2 %
G'ozg'on sh.	59	23,6 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



360

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



2 283

Savdo



93

Axborot va aloqa



819

Sanoat



63

Tashish va saqlash



97

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

250

Qurilish



390

Yashash va ovqatlanish



566

Boshqa turlar

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 921 tani tashkil etdi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga tashish va saqlash sohalari (128,6 foiz), shahar va tumanlar kesimida esa – G'azg'on (127,6 foiz), Tomdi (126,2 foiz), Konimex (102,1 foiz) shahar va tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.


Hududlar kesimida

Xatirchi t.	969	Nurota t.	323
Zarafshon sh.	774	G'ozg'on sh.	250
Navoiy sh.	680	Konimex t.	244
Navbahor t.	549	Tomdi t.	236
Karmana t.	465	Uchquduq t.	62
Qiziltepa t.	369		


2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxon – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Karmana t.	97	12,7 %	Konimex t.	12	6,9 %
Navoiy sh.	54	8,6 %	Uchquduq t.	9	25,7 %
Navbahor t.	36	6,0 %	Zarafshon sh.	13	9,0 %
Xatirchi t.	35	6,7 %	G'ozg'on sh.	5	16,7 %
Nurota t.	25	9,7 %	Tomdi t.	2	4,3 %
Qiziltepa t.	12	4,2 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 1 212 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida


Karmana t.	765	Konimex t.	174
Navoiy sh.	629	Zarafshon.	144
Navbahor t.	597	Tomdi t.	46
Xatirchi t.	520	Uchquduq t.	35
Qiziltepa t.	288	G'ozg'on sh.	30
Nurota t.	259		

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat




Savdo



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	11	20,0 %	Xatirchi t.	2	18,2 %
Karmana t.	6	10,3 %	Konimex t.	1	11,1 %
Nurota t.	4	26,7 %	Uchquduq t.	1	16,7 %
G‘ozg‘on sh.	2	40,0 %	Navbahor t.	1	12,5 %

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.0 barabarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 45 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 17,0 foiz), Eron Islom (10,2 foiz), Turkiya (ulushi 6,3 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,8 foiz) va Qozog'iston (ulushi 2,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Karmana t.	58	Xatirchi t.	11
Navoiy sh.	55	Navbahor t.	8
Nurota t.	15	Tomdi t.	8
Qiziltepa t.	15	Uchquduq t.	6
Zarafshon sh.	12	G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	9		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 100 tasi qo'shma korxonalar, 102 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar**

19	Navoiy shahri	36
7	Zarafshon shahri	5
2	G'ozg'on shahri	3
4	Konimex tumani	5
8	Qiziltepa tumani	7
5	Navbahor tumani	3
36	Karmana tumani	22
7	Nurota tumani	8
2	Tomdi tumani	6
4	Uchquduq tumani	2
8	Xatirchi tumani	3

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
koʻrsatish boʻlimi
Tel.: 79.223.42.67